

Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi

“Iqtisodiyot fanlari” yo‘nalishi

Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
Yashil iqtisodiyot va barqaror rivojlanish sharoitida hududda sanoat korxonalari faoliyatini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini ishlab chiqish 	Tadqiqot shakli: Amaliy. Ilmiy tadqiqot natijalari: - «yashil» iqtisodiyot sohasida mahalliy korxonalarning iqtisodiy faolligini hamda samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan tashkiliy tuzilmasini takomillashtiradigan ESG – boshqaruv modeli va uning asosida yangi GRI, SASB, TCFD standartlarini joriy etish mexanizmlari ishlab chiqiladi; - sanoat korxonalari barqaror rivojlanishining integral ko‘rsatkichlarini aniqlash va baholash uslubiyotini takomillashtirish asosida ularni barqaror, o‘rtacha barqaror va xavfli korxonalarga toifalash hamda sertifikatlash orqali tabiatdan foydalanishning iqtisodiy-moliyaviy mexanizmlari ishlab chiqiladi. - sanoat korxonalari o‘rtasida chiqindi va resurs almashinuvi yo‘lga qo‘yish (sirkulyar iqtisodiyot) va mahalliy resurslarni integratsiyalashgan holda boshqarishga erishish maqsadida hududiy kooperatsiya doirasida “Yashil universitet – Yashil korxona – Aholi” zanjirini shakllantirishga asoslangan Yashil sanoat klasterlarini tashkil qilish taklifi ilmiy asoslanadi; - hududning investitsion jozibadorligini oshirish, barqaror rivojlanishga yo‘naltirilgan «yashil» investitsiyalar va kreditlar hajmini ko‘paytirish maqsadida sanoat korxonalarida UNGC tamoyillaridan foydalanish mexanizmlari takomillashtiriladi; -hududda sanoat korxonalari faoliyatini boshqarish mexanizmi samaradorligini oshirishning 2025-2030 yillarga mo‘ljallangan inertsiya, bazaviy va mobilizatsion ssenariyalariga asoslangan prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqiladi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish. Tadqiqot natijalari Iqtisodiyot va moliya vazirligi tizim tashkilotlarida sinovlardan o‘tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida Iqtisodiyot va moliya vazirligi xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish. Tadqiqot natijalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlar olinadi. Nufuzli ilmiy jurnallarda, jumladan <i>Scopus / Web of Science</i> ma’lumotlar bazasida indekslanadigan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi. Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Iqtisodiyot va moliya vazirligining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.